

**GLOBALLASHUV DAVRIDA INTERNETNING YOSHLAR  
TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**

**THE IMPORTANCE OF THE INTERNET IN THE EDUCATION OF  
YOUNG PEOPLE IN THE ERA OF GLOBALIZATION**

**ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРНЕТА В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ  
ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Talaba: J. Z. Ablonberdeyev

TATU Samarqand filiali

Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasb ta'lim fakulteti

TT 23-05 guruh talabasi e-mail: [ablonberdiyev@gmail.com](mailto:ablonberdiyev@gmail.com)

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar haqida, bugungi kundagi dolzarb muammolardan internetning salbiy va ijobiy tomonlari haqida uning afzalliklari, yoshlarga tasiri va foydasi borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, internet, elektron tizimlar, onlayn, audiomahsulotlar, egosentrizm.

XXI asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i-internetsiz tasavvur qilish mushkul. Ma'lumki, internet-axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas internetning

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish. Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda



qoldirmoqda. Lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa *yoshlarda* axborot iste‘moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi ba‘zilarning g‘arazli kimsa va oqimlar ta‘siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e‘tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so‘zimizning isbotidir. Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta‘sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas.

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir. Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma‘lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.<sup>1</sup> Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg‘onishi barchaga ma‘lum. Yoshlar tarmoqdagi nosog‘lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e‘tibor qaratishlari ehtimoldan xoli emas. Shu sababdan kattalar farzand tug‘ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o‘tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to‘g‘ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog‘i manbalari zamonamiz o‘smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlarga ko‘ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki

<sup>1</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati>



xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.<sup>2</sup> Zimdan e'tibor bersak, internet kafelariga serqatnov yoshlar (ayniqsa o'smirlar) u yerga borishib, har xil buzg'unchi g'oyalar ruhidagi ur-sur, o'ldir-yondir komp'yuter o'yinlarini tomosha qilayotganligini, tuturuqsiz narsalar bilan vaqtlarini besamar o'tkazayotganligiga guvoh bo'lalmiz. Bunday yoshlarni biz internet imkoniyatlaridan to'laqonli, faqat bilim olish bilan mashg'ul deya ayta olamizmi? Eng achinarlisi, ayrim befarq ota-onalar farzandim internetda o'tirib, bilim olyapti, deb o'ylashadi. Shu o'rinda talabalarning ba'zi dars paytlarida qo'l telefonlari orqali internet saytlariga kirib, bemalol foydalanib o'tirishlariga munosabat bildirmoqchiman. To'g'ri talaba mustaqil izlanuvchi shaxs sifatida, bilimni ko'proq boyitishi, turli xil manbaalarga murojaat etishi yaxshi. Lekin dars hisobidan emas... chunki, harnarsaning ham o'z vaqt-soati bor, shu jumladan internetdan foydalanishning ham. Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo'lgani kabi zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda ham me'yorga amal qilmog'imiz zarur!<sup>3</sup>

Xulosa qilib aytganda internetning yoshlar tarbiyasida o'ziga xos o'rniga ega bo'lishi va o'zgaruvchan jihatlarini kengaytirishi sababli, bu mavzu juda muhimdir. Yoshlar uchun internet adraslarini va texnologiyalarni o'rganish, kompyuter va internetni foydalanishni ma'naviyat bilan bog'liqlikni tushuntirish va qo'llash, aloqa qilish, malumot topish va uningdan foydalanish qobiliyatlari internetning yoshlar tarbiyasida o'rni katta saqlaydi. Bu mavzu yoshlar uchun quyidagi muhim nuqtalarni o'z ichiga oladi:

1. **Ma'naviyatli foydalanish:** Yoshlar uchun internetni ma'naviyatli foydalanishga o'rgatish, ularni negativ tajribalardan himoya qilish uchun ma'naviyatli texnologiyalar va uslublar rivojlanishi muhim.
2. **Tanqidiy fikrlash:** Internet yoshlar uchun tanqidiy fikrlash va kritik muhokama qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir vosita bo'lib, ularni haqiqiy va axloqiy ma'lumotlarni ajratib chiqishga o'rgatish bu sohada amalga oshirilishi kerak.
3. **Xavfsizlik:** Yoshlarga internetda xavfsiz foydalanishni o'rganish, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va onlayn g'alaba qozonish bo'yicha talqin berish juda muhimdir.

<sup>2</sup> [https://www.naqshband.uz/makolalar/internetning\\_yoshlar\\_tarbiyasiga\\_tasiri](https://www.naqshband.uz/makolalar/internetning_yoshlar_tarbiyasiga_tasiri)

<sup>3</sup> <http://uchildiz.uz/internetning-yoshlar-ongiga-tasiri/>



- Ijtimoiy aloqa va qo'llab-quvvatlash:** Internet yoshlarga aloqa qurish, ijtimoiy jamlashuvda ishtirok etish, qo'llab-quvvatlash va boshqa insonlar bilan hamkorlik qilishga o'rgatish imkoniyati beradi.
- Texnologik bilim va qobiliyatlar:** Yoshlar uchun internet, texnologiya va kompyuter bilimlarini o'rganish imkoniyati yaratadi, bu esa ularni mustaqil, qiziqarli va ma'naviyatli yondashuvchilar qiladi.
- Ijtimoiy xizmatlarga qatnashish:** Yoshlar internet orqali ijtimoiy xizmatlarga qatnashib, o'zlarining qo'lga kiritgan bilimlarni ijro etish, ijtimoiy masalalarga oid xabar va ma'lumotlarga yetkazishlari yoki ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishlari mumkin.
- Onlayn turmush qurish:** Internet yoshlar uchun o'zaro aloqalarni rivojlantirish, yangi do'stlar bilan tanishish, dunyoni kengaytirish va boshqa mamlakatlarning va madaniyatlarining tushunchalarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, internetning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati katta. Bu, ularning o'z fikr-mulohazalarini shakllantirish, yangiliklarga ishtirok etish va o'zlarini rivojlantirishlari uchun katta imkoniyat yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati>
- [https://www.naqshband.uz/makolalar/internetning\\_yoshlar\\_tarbiyasiga\\_tasiri](https://www.naqshband.uz/makolalar/internetning_yoshlar_tarbiyasiga_tasiri)
- <http://uchildiz.uz/internetning-yoshlar-ongiga-tasiri/>
- Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
- Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
- Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
- Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
- Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
- Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.



10. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.

11. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.

12. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

